

**ZAMONAVIY QUROLLI MOJAROLARDA TANK BO'LINMALARINI  
QO'LLASHNING AYRIM JIXATLARI TO'G'RISIDA.**

**SOME ASPECTS OF THE USE OF TANK UNITS IN MODERN ARMED  
CONFLICTS.**

**НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ ТАНКОВЫХ  
ПОДРАЗДЕЛЕНИЙ В СОВРЕМЕННЫХ ВООРУЖЕННЫХ  
КОНФЛИКТАХ.**

***ILMIY RAHBAR: XOLDAROV ABDULXAMID YO'L DOSHEVICH  
HARBIY SAN'AT KAFEDRASI OPERATIV SAN'AT SIKLI O'QITUVCHISI  
ISAQOV MUSA AZAMAT O'G'LI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI AKADEMIYASI HARBIY  
XAVFSIZLIK VA DAVLAT MUDOFAASI FAKULTETI 1-BOSQICH  
TINGLOVCHISI***

**Annotatsiya / Abstract / Аннотация:**

O'zbekcha: Ushbu maqolada zamnaviy qurolli mojarolarda, jumladan, Chechen urushlari, Suriyadagi jangovar operatsiyalar va Rossiya-Ukraina o'rtasidagi qurolli to'qnashuvlar tajribasida tank bo'linmalarining qo'llanishi va ularning taktikasi tahlil qilinadi.

Inglizcha: This article analyzes the application and tactics of tank units in modern armed conflicts, including the Chechen wars, combat operations in Syria, and armed clashes between Russia and Ukraine.

Ruscha: В данной статье анализируется использование и тактика танковых подразделений в современных вооружённых конфликтах, включая чеченские войны, боевые операции в Сирии и вооружённые столкновения между Россией и Украиной.

**Kalit so'zlar / Keywords / Ключевые слова:**

O'zbekcha: dinamik himoya, Chechen urushlari, kirish-chiqish taktikasi, qo'llab-quvvatlash, Chechen usuli, pistirmalar, kesishgan o't ochish, o'lik hududlar, tankka qarshi granatalar

Inglizcha: dynamic protection, Chechen wars, entry-exit tactics, support, Chechen method, ambushes, crossfire, dead zones, anti-tank grenades

Ruscha: динамическая защита, чеченские войны, тактика вход-выход, поддержка, чеченский метод, засады, перекрёстный огонь, мёртвые зоны, противотанковые гранаты

XXI asr tanklarning istiqboli haqidagi bahs va munozaralarning yangi bosqichi bo‘ldi. Bir qator harbiy ekspertlar hatto tanklarni qurollanishdan olib tashlash uchun o‘zlarining bashoratlarini ilgari surdi. Ammo tanklarning jangovar harakatlardagi ahamiyatini bo‘lib o‘tgan zamonaviy qurolli to‘qnashuvlarning natijalarini kuzatish orqali bilib olishimiz mumkin.

### **Birinchi chechen kompaniyasi. Grozniy (31 dekabr 1994 yil – 8 fevral 1995 yil)**

Rossiya qo‘sishinlarining 1994-96 yillardagi Dudaev boshchiligidagi chechen qo‘sishnlari bilan bilan qurolli to‘qnashuvi zamonaviy qurolli mojarolarning mashxur va o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘ldi. Ushbu jangning o‘ziga xosligi shundaki, Grozniy shahrini qo‘lga kiritish uchun Rossiya qo‘sishnlari zamonaviy tanklari, jumladan T-72B1, T-72B2, T-80B, T-80 B Vlarini qo‘lladi. Ammo qo‘mondonlik tomonidan jangovar harakatlar puxta rejalshtirilmaganligi, ekipajlar tarkibining shaharda jangovar harakatlar olib borishdagi no‘noqliklari sababli, jangovar harakatlarning ilk kunlarida Rossiya qo‘sishnlari katta talofatlar ko‘rdi. Rossiya qo‘sishnlari shaharga kirib kelar ekan, chechen jangarilari tanklarga yaqin (hatto 100 metrgacha) masofalardan RPGdan o‘t ochishlarni amalga oshiradilar. Tanklarda dinamik himoyaning mavjud emasligi tanklarning yirik talofatlar ko‘rishi, shu bilan birga qariyb 138 nafar ekipaj tarkibining turli darajadagi jarohatlarni olishini ta’minladi.

### **Ikkinchi chechen kompaniyasi. Grozniy (1999 yil)**

Ikkinchi Chechen kompaniyasida tanklar keng qo‘llanildi. Shu sababli ushbu jang juda qonli va ko‘p talofatli bo‘lib o‘tdi. Ushbu jangovar harakatlarda Rossiya qo‘sishnlari Grozniy shahrini qo‘lga kiritish maqsadida jangga kiritgan bo‘lsa, Chechen qo‘sishnlari esa aksincha asosan mudofaa uchun qo‘llashdi. Ruslar tomonidan tanklarni shaharni qo‘lga kiritishda qo‘llanilgan taktik usullardan biri bu “**kirish-chiqish**” taktikasi. Unga ko‘ra cheklangan sondagi tanklar shaharga shiddat bilan kirib, o‘t ochishni amalga oshiradi va zudlik bilan jang maydonidan chiqib ketadilar. Bu taktika asosan bo‘linmalar shahar infratuzilmasidan foydalangan holda mudofaa harakatlarini olib borgan hollarda mudofaalansa qo‘llaniladi.



Ikkinchi tanklarni qo‘llash taktikasi, bu tanklarni piyoda bo‘linmalarini qo‘llab quvvatlash uchun safarbar etish. Bu taktikaga ko‘ra, tanklar piyoda bo‘linmalarini dushmanning quruqlikdan amalga oshiradigan harakatlariga qarshi qo‘llab quvvatlashni amalga oshiradilar.

Uchinchi tanklarni qo'llash taktikasi sifatida tanklarni shaharlarning kirish joylariga blokpostlarni barpo etish uchun qo'llash bo'ldi.

### **Suriya (2011-2013 yy.)**

Ushbu davrga qadar zirxli texnikalarni shaharni qo'lga kiritish uchun safarbar etish maqsadida bir qator jangovar harakatlar olib borilgan va yetarlicha tajriba va xulosalar mavjud edi. Dastavval Suriya AR qo'mondonligi tanklarni jangovar harakatlarga jalb etmadi. Faqatgina jangovar harakatlar boshlanganidan 1 yil o'tgach tanklarni (tankning eski modifikatsiyalari, ya'ni T-55 va T-62 tanklarni) qo'llashdi. Qurollanishda mavjud bo'lgan T-72 BA (Italiyada modernizatsiya qilingan) tanklari esa qurolli mojarolarning fronti kengayishini oldini olish uchun zaxirada saqlandi.

Zero tanklarni jangovar harakatlardagi yo'q qilinishi mudofaalanayotgan tomondagi shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holatiga ijobjiy, hujumga o'tgan shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holatiga esa aksincha salbiy ta'sir ko'rsatadi. T-72 BA tanklari ilk bor 2011 yil 26 dekabrdagi Xoms shahrini qo'lga kiritishda jalb etildi. Ularni ko'p miqdorda qo'llash esa 2012 yil aprel oyida Idlib shahrini qo'lga kiritishda kuzatildi, ammo bu muvaffaqiyatsizlikka uchradi. 10 dan ortiq tanklar safdan chiqdi. Bu holat tanklarning ularni qo'llab quvvatlovchi motoo'qchi, artilleriya va aviatsiya bilan hamkorlikning amalga oshirilmagani bilan tavsiflandi.



Jangarilar TQVlarni "Chechen metodi"ga asosan amalga oshirishgan. Hamda SARdagi jangovar harakatlar maydonining o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda quyidagi tajribalarni amalda qo'lladilar:

- zirxli texnikalar bilan kurashish uchun granatamyotchilar harakatini qo'llovchi pulemyotchi va merganlardan iborat guruhlar tuzishgan;
- pistirmalarni bir nechta guruhlar tarkibida binolarning podvali, turli qavatlaridan birvarakayiga amalga oshirishgan;
- kolonnalar to'xtatilib, xoldan toydirilgach jangga PJM-2 va "Shilka"lar kiritilgan;
- tanklarni ishonchli yakson etilishiga erishish uchun tankning zaif nuqtalariga TQVlardan bir vaqtda o't ochilgan.

*Tanklarga qarshi tadbiq etilgan harakatlarga javoban Suriyada tanklarni taktik qo'llash quyidagicha amalga oshirilgan:*

1. Tanklarning ko'rish burchagini kattalashtirish uchun qo'shimcha kuzatuv vositalarini o'rnatish: aylanuvchan bosh qismiga ega pereskoplar, videokamera va boshqalar.
2. Tanklarni artilleriya va aviatsiya bilan qo'llab-quvvatlash;

3. Shahardagi vayronalar, yo'llarning buzilgan hududlarini minalardan tozalash uchun muhandislik texnikalarini jalb qilish;
4. Tanklarga qo'shimcha himoya sifatida qum to'ldirilgan qoplar, ba'zi hollarda tank bashnyasiga qo'shimcha karkaslar o'rnatilib, ularni temir-beton bolklar bilan himoyalash;
5. Shaharga kirish vaqtida tanklarning "Tucha" tizimidan tutun uloqtirib so'ngra jangga kirish;
6. Yaqin masofada shaharda jangovar harakatlar olib borganda tanklardan granatamyotchi egallagan pozitsiyaga qarab ketma-ket o't ochishni amalga oshirish;
7. Tanklarni qayta o'qlash vaqtida PJM ba'zi hollarda esa "Shilka"lar o'ti bilan qo'llab quvvatlash;
8. Tanklar yetarli bo'lган hollarda tanklarni navbatma-navbat o't ochishga jalb etish;
9. Tanklardan "kesishgan o't ochish" usulini amalga oshirish;
10. Tanklardan o't ochishni amalga oshirish yakunida 4-5 dona snaryadni konveerda saqlab qolish (dushman qarshi hamlasini qaytarish uchun).

Bu kabi tankni taktik qo'llashni amalga oshirish uchun bushman bilan to'qnashuv chog'ida 2-3 dona tank (kolonnada harakatlanib yoki burchak oldinga holatda) va tanklar ortidan 1-2 dona PJM-2 (PJM-2 shtatda majud bo'lмаган hollarda ZSU-23-4 "Shilka" texnikasi PJM-1 bilan) harakatlanishi lozim. Yakunda esa piyodalar yordamida binolar tozalash tadbirlari amalga oshiriladi.

Bundan tashqari tanklarning SAR qo'shinlari tomonidan muvaffaqiyatlil qo'llangan yana bir taktik usul mavjud. Unga ko'ra tanklar birvarakayiga bir necha yo'nalishdan binoga yaqinlashib keladi, pulemyotlardan o't oshish orqali binodagi jangarilarning harakatlarini cheklaydi va bir vaqtning o'zida avvaldan kelishilgan holda binoning turli qavatlariga tank pushkasidan "OF" snaryadlari bilan o't ochishni amalga oshiradi. Bu usul tank bo'linmalariga bir qator ustunliklarni olib keladi. Jumladan:



- tanklar uchun "o'lik" hududlarni keskin kamaytirish;
- jangarilarning qavatlardagi harakatlarini qiyinlashtirish yoki butkul cheklash;
- bir vaqtida tank pushkasidan o't otish natijasida zarba to'lqinini hosil qilish;
- o'ziyurar artilleriya to'plari yordamida shturm amalga oshirilayotgan binoning yuqori qavatlariga o't ochib tank bo'linmalarining harakatlarini qo'llab-quvvatlash.

#### **Ukraina (2022 yil 24 fevraldan 2023 yil martga qadar)**

Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlari tomonidan Ukraina hududida olib borilayotgan maxsus operatsiyada tanklarni qo'llash tajribasi shuni ko'rsatmoqda:

Ukraina hududida qo'llanilayotgan tanklar:T-62, T-64, T-72A(B), T-80U, T-90;

Asosiy o't ochib zarba berish, shaxsiy tarkibni dushman olovidan himoya qilish va manyovrlarni amalga oshirish vositalari hisoblanmoqda. Rossiya tomoni tanklar va piyodalar jangovar mashinalaridan 1200-1500 metr masofadagi dushmanning zirxli texnikalari hamda harbiy ob'ektlarining infratuzilmalariga zarba berishda foydalanmoqda. Ular aksariyat hollarda tanklarning o't ochishni boshqarish va o'qlash tizimlari, mo'ljalga olish yoki kuzatish moslamalarida nosozliklar kelib chiqqanda yoki ishdan chiqqan hollarda, shuningdek, botqoqliklarda to'xtab qolish va uni chiqarish choralar ko'rilmaganligi, joyning geografik hususiyatlaridan foydalanib jangovar mashinalarning texnik imkoniyatlaridan to'g'ri baholanmaganligi sababli aksariyat hollarda jangovar texnikaning to'liq o'q-dorilari jamlanmasi bilan tashlab ketish holatlari uchramoqda.

Rossiya harbiylari shahar va aholi yashash punktlarida tanklar taktik-texnik xarakteristikasiga asosan pushkasining gorizontal tushish va ko'tarilish burchagi  $-5^{\circ}$  va  $+15^{\circ}$  ekanligini hisobga olib, baland binolarining 4-5 qavatida joylashgan dushman kuchlarini yakson etish uchun tank minimal – 40-50 metr masofadan turib o't ochish imkoniyati bor. Lekin, olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, shahar (aholi yashash punkti)larda tanklarning og'irligi va pushkasining gorizontal hamda vertikal burilish tezligining uncha yuqori bo'limganligi to'satdan paydo bo'luvchi dushman granatomyotchisiga o'z vaqtida zarba bera olish imkoniyatini cheklaydi, shuning uchun, bunday joylarda tanklarni piyoda askarlar yoki qurollarining ko'tarilish burchagi yuqori bo'lgan jangovar texnika (BMP-2, BTR-80, BTR-82A)lar bilan kuchaytirish choralarini ko'rish lozimligi inobatga olinmagan.

So'nggi xabarlarga asosan AQSh ittifoqdosh davlatlar bilan Ukrainianing sharqiy qismi Donbassdagi hududlarida mudofaani kuchaytirish maqsadida Kipr qurolli kuchlarida mavjud qurol aslaha va yangi tanklar bilan kuchaytirishni ma'lum qildi. Bu haqda AQShning "Army Recognition" matbuot xizmati xabar qildi. AQSh hukumati Ukraina kuchlariga "T-80U" asosiy jangovar tanklari, Leopard sovg'a qilishini va'da qilgan. "T-80U" asosiy jangovar tanklari, Sovet ittifoqining takomillashtirilgan nusxasidir. Uning asosiy quroli avtomatik 125 mmli



“2A46M-1” to‘pi hamda yarim avtomatik lazer nurli “9M119 Refleks” raketasi 5000 m masofadagi nishonni yakson qilish imkoniyatiga ega quollaridan iborat.

Tankka va piyodalarga qarshi qo‘llaniluvchi qo‘l granatalari har ikki tomonda ham foydalanib kelinmoqda. Ayniqsa binolar va yer osti hududlarda dushmanni yakson etish uchun avval bir-ikki qo‘l granatasi uloqtirib, so‘ngra bino ichiga yoki yerto‘laga kirish hamda u yerda “tozalash” ishlari olib borilmoqda.

Maxsus harbiy operatsiyaning dastlabki bosqichida bo‘linmalarning kolonnalardan ortda qolgani va keng frontda tarqalib ketgani sababli, Rossiya qo‘sishlarida vzvod va rota tarkibida o‘t ochishini muhim yo‘nalishlarga jamlash, o‘t ochishni ko‘chirish va uni taqsimlash bo‘yicha bo‘linma komandirlari tomonidan o‘t ochishini boshqarish savollariga yetarlicha ahamiyat qaratilmadi.

### **Xulosa**

Zamonoviy sharoitida olib borilgan jangovar harakatlarning aksariyati tanklarning bevosita ishtirokisiz amalga oshmagan. Tanklar doimiy ravishda motoo‘qchi bo‘linmalar asosida tuzilgan ishg‘ol bo‘linmalarining jangini o‘t bilan madad berib turishi evaziga muvaffaqiyaga erishilgan.

Tankka qarshi vositalarning takomillashuvi natijasida tanklarning jangovar harakatlar olib borish usullari ham takomillashganini ko‘ramiz. Ayniqsa Suriyadagi jangovar harakatlar mobaynida tanklarni qo‘llash usullari sezilarli tarzda o‘zgardi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. Losik O.A., Brilev O.N. “Имеют ли танки будущее?” М.: Техника и вооружение. 2006 yil №1.
2. Parfenov E.I. “Боевая машина поддержки танков — новое эффективное огневое средство в современном бою” М.: Стратегическая стабильность. 2010 yil. №4.
3. Xlyustov M.V. “Танки в современных конфликтах. Обзор применения основных боевых танков за последние 20 лет.” М.: АНО центр стратегических оценок и прогнозов, 2014.
4. Suvorov S. “Танк Т-72: вчера, сегодня, завтра.” М. 2001
5. Suvorov S. “Танки и БМП в бою: опыт современных войн” М.: Современная армия. 18.06.12
6. Baryatinskiy M., Malgunov V. “Танки XXI века” М.: 2012.
7. Dianov F. “Без танков нет победы” М.: Национальная оборона. 2012. № 6.
8. Stepanov V. “Вся ложь танковых рейтингов” М.: Военно-промышленный курьер, 2012, № 29, б. 1, 7.
9. Lukyanov A.V. “Современная бронетанковая техника армий иностранных государств” М.: Rossiya Fedratsiyasi Mudofaa vazirligi, 2010.